XALQ DEPUTATLARI DENOV TUMANI KENGASHINING
Q A R O R I

2025-yil 30-sentabr VII-12-88-8-111-K/25 Denov tumani

Denov tumanidagi Guliston-13, Guliston, Chashmasor, Istiqlol yulduzi va Paxtakurash mahalla fuqarolar yig‘inlari nomlarini qayta nomlash hamda xalq deputatlari tuman Kengashining 2016-yil 18-martdagi 60/13-05-sonli qarorining 1-ilovasining 9-bandiga o‘zgartirish kiritish to‘g‘risida.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 15-avgustdagi 386-sonli qarori ijrosini ta’minlash maqsadida Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash bo‘yicha tuman komissiyasining 2025-yil 12-avgustdagi 01-05/106-sonli yig‘ilish bayoni hamda “Geografik obyektni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarning qonun hujjatlari talablariga muvofiqligi haqidagi 2025-yil 29-avgustdagi 05-19-14804-sonli Respublika Kadastr agentligining davlat ekspertiza xulosasiga asosan tuman hokimi maslahatchisi F.Mengboyevning ma’ruzasini ko‘rib chiqib, deputatlar tomonidan bildirilgan fikr-mulohazalarni inobatga olib, xalq deputatlari Denov tumani Kengashi

QAROR QILADI:

1. Tuman komissiyasining 2025-yil 12-avgustdagi 01-05/106-sonli yig‘ilish bayoni hamda “Geografik obyektni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarning Qonun hujjatlari talablariga muvofiqligi haqidagi 2025-yil 29-avgustdagi 05-19-14804-sonli Respublika Kadastr agentligining davlat ekspertiza xulosasi va tuman hokimi maslahatchisi F.Mengboyevning ma’ruzasi ma’qullansin.

2. Denov tumanidagi Guliston-13, Guliston, Chashmasor, Istiqlol yulduzi va Paxtakurash mahalla fuqarolar yig‘inlari nomlarini qayta nomlangan yangi nomi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. O‘zbekiston mahallalar Uyushmasi Denov tumani bo‘limi (I.Irkaboyev), tuman statistika bo‘limi (U.Aliqulov), tuman qurilish bo‘limi (M.So‘fiyev), Denov tumani Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi boshlig‘i (I.Ismoilov) va davlat xizmatlari markazi (O.Xolmirzayev) birgalikda Guliston-13, Guliston, Chashmasor,

Istiqlol yulduzi va Paxtakurash mahalla fuqarolar yig‘inining yangi nomini ro‘yxatdan o‘tkazish va elektron bazani shakllantirish, ish yuritish hujjatlariga tegishli o‘zgartirishlar kiritish bilan bog‘liq barcha tadbirlarni amalga oshirsin.

4. Tuman kadastrlar palatasi bo‘limi (I.Radjabov) tumandagi qayta nomlangan mahallalar nomi yozilgan ko‘rsatkich va belgilar, peshlavhalarni zamonaviy dizayn asosida bosqichma-bosqich o‘rnatilishini ta’minlasin.

5. Tumandagi qayta nomlangan 5 ta mahalla fuqarolar yig‘ini nomini Kengash qarori asosida Respublika Kadastr agentligining davlat reyestri elektron bazasiga kiritish maqsadida viloyat hududiy komissiyasiga taqdim etilsin.

6. O‘zbekiston mahallalar Uyushmasi Denov tumani bo‘limi (I.Irkaboyev) hamda nomlari o‘zgargan 5 ta mfy raislariga:

Yangi nomlangan 5 ta mahalla nomini tumandagi tashkilot va korxonalarga hamda mahalla aholisiga yetkazib, yangi nomdan foydalanish bo‘yicha tushuntirish va targ‘ibot ishlarini amalga oshirsin.

7. Xalq deputatlari tuman Kengashining 2016-yil 18-martdagi 60/13-05-sonli qarori 1-ilovasi 9-bandining 1 va 2 ustunlardagi “Xo‘jaxalqi” so‘zlari “Ziyokor” so‘zlari bilan almashtirilsin;

Xalq deputatlari tuman Kengashining 2016-yil 18-martdagi 60/13-05-sonli qarori bilan“Ziyokor” mahallasining nomi “Xo‘jaxalqi” nomiga o‘zgartirilganligi inobatga olinsin.

8. Ushbu qaror tuman hokimligi Axborot xizmati (F.To‘rayeva) tuman hokimligining ijtimoiy saytida va “Chag‘oniyon” gazetasida rasman e’lon qilinsin hamda qaror qabul qilingan kundan boshlab kuchga kirsin.

9. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Ijtimoiy soha, yoshlar siyosati, madaniyat va sport masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (O‘.Hidirova) zimmasiga yuklansin.

10. Mazkur qaror qabul qilingan kundan kuchga kiradi.

Kengash raisi ABRAROV ILXOM IBRAXIMOVICH

Xalq deputatlari Denov tumani
Kengashining
2025-yil 30-sentabrdagi
VII-12-88-8-111-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Denov tumanidagi Guliston-13, Guliston, Chashmasor, Istiqlol yulduzi va Paxtakurash mfyni nomini qayta nomlash bo‘yicha taklif.

T.R	Geografik obyektni turi	Joylashgan o‘rni	Geografik obyektning amaldagi nomi	Tuman tomonidan berilgan takliflar	Respublika Kadastr agentligi ekspert komissiyasi xulosasi
1	**Mahalla**	Denov tumani	**Guliston-13 MFY**	**Guliston**	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
2	**Mahalla**	Denov tumani	**Guliston MFY**	**Yuksalish**	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
3	**Mahalla**	Denov tumani	**Chashmasor MFY**	**Pojur**	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
4	**Mahalla**	Denov tumani	**Istiqlol yulduzi MFY**	**Kenagas**	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
5	**Mahalla**	Denov tumani	**Paxtakurash MFY**	**Xayrobod**	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.